# MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURSLARI SALOHIYATINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA OLDINI OLISH CHORALARI

**Sagieva Moldir Orazbay qizi**
University of innovation technologies (Nukus sh.) dotsenti v.b., iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori
***https://doi.org/10.5281/zenodo.20273287***

***Annotatsiya***. *Ushbu maqolada mintaqa iqtisodiyotida suv resurslari salohiyatini oshirish muammolari, ularning asosiy masalalari va oldini olish choralari yoritilgan. Shuningdek, mintaqa iqtisodiyotida suv resurslari salohiyatini oshirish muammolarini oldini olish choralarini tadqiq qilish yuzasidan xulosalar keltirilgan.*

***Аннотация***. *В данной статье рассматриваются проблемы повышения потенциала водных ресурсов в региональной экономике, их основные аспекты и превентивные меры. Также сделаны выводы по результатам исследования превентивных мер по повышению потенциала водных ресурсов в региональной экономике.*

***Abstract.*** *This article discusses the problems of increasing the potential of water resources in the regional economy, their main issues and preventive measures. Also, conclusions are drawn on the study of preventive measures for increasing the potential of water resources in the regional economy.*

***Kalit so‘zlar.*** *Mintaqa, mintaqa iqtisodiyoti, suv, resurs, suv resurslari, salohiyat, muammo, chora.*

***Ключевые слова.*** *Регион, региональная экономика, вода, ресурс, водные ресурсы, потенциал, проблема, решение.*

***Key words***. *Region, regional economy, water, resource, water resources, potential, problem, solution.*

Mintaqa iqtisodiyoti va ijtimoiy rivojlanishi bevosita suv resurslariga bog‘liqdir. Suv resurslari qishloq xo‘jaligi, sanoat, ichimlik suvi ta’minoti, energetika va ekologik barqarorlikning asosiy unsur bo‘lib hisoblanadi. Shu bois, suv resurslari salohiyatini oshirish va ularni samarali boshqarish hudud iqtisodiyoti barqarorligini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega. Ayniqsa, so‘nggi yillarda mintaqada suv resurslari kamayishi, mavjud suv inshootlarining eskirishi va ob-havo sharoitlarining o‘zgarishi natijasida iqtisodiy zarar va ekologik muammolar kuchaymoqda. Ushbu holat suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va davlat siyosatini samarali amalga oshirishni talab qiladi. Bu borada qabul qilingan strategiya mamlakatning suv resurslarini barqaror boshqarish va irrigatsiya sektorini takomillashtirishni qamrab oladigan bir qator infratuzilmaviy, siyosiy, institutsional va salohiyatni rivojlantirish choralarini o‘z ichiga oladi [1].

Shuningdek, mintaqada iqtisodiyotini taraqqiy qildirishda suv resurslari salohiyatini oshirish zarurati mavjud. Jumladan, qishloq xo‘jaligi mintaqa iqtisodiyotining asosiy sohasi bo‘lib, ko‘p miqdorda suv talab qiladi. Respublikamizda suv resurslari cheklangan bo‘lishiga qaramasdan, uni tejashga kam e’tibor berilmoqda. Natijada, suvning ko‘p qismi bekorga sarf bo‘lmoqda [2]. Bu borada

samarali sug‘orish tizimlarining yo‘qligi esa hosildorlikni pasaytiradi va suv isrofini keltirib chiqaradi. Bu borada zamonaviy drip (tomchilatib) va sprinkler sug‘orish tizimlarini joriy etish orqali suv resurslaridan foydalanish samaradorligi oshirilishi mumkin. Shaharlar va qishloqlarda ichimlik suvi ta’minoti esa doimiy muammo bo‘lib hisoblanadi. Bu bo‘yicha suv ta’minotining barqarorligini ta’minlash uchun suv omborlari, nasos stansiyalari va filtratsiya tizimlarini modernizatsiya qilish zarur. O‘zbekistondan suv tanqisligi global iqlim o‘zgarishi oqibatida dolzarblashib bormoqda [3]. Sanoat korxonalari va elektr stansiyalari ham ko‘p suv iste’mol qiladi. Suv resurslarining cheklanganligi sanoat ishlab chiqarishining samaradorligini pasaytiradi. Buning uchun sovutish va ishlab chiqarish jarayonlarida suvni qayta ishlash texnologiyalari joriy etilishi kerak. Bu boradagi boshqa tadqiqotlar mintaqa iqtisodiyotida suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo‘llarini aniqlashga bag‘ishlangan [4]. Olib borilgan chora-tadbirlarning yo‘nalishi suv resurslari bilan bog‘liq muammolarni aniqlashga qaratiladi. Shular qatorida suv bilan bog‘liq eng asosiy muammo mavjud cheklangan suv resurslarining tobora oshib borayotgan talablarga mos kelmasligi bilan bog‘liqdir [5].

Fikrimizcha, suv resurslarini boshqarishda quyidagi muammolar mavjud bo‘lib, ushbu masala respublikamiz miqyosida tahlil qilib boriladi:

- qonunchilik va siyosiy muammolar. Ular tarkibiga suvdan foydalanish tartib-qoidalarining yetarlicha rivojlanmaganligi, suv resurslari taqsimoti va sug‘orish tizimlariga investitsiyalarning yetarli emasligi va hududlararo suv taqsimotining noteng va ba’zi hududlar suv yetishmovchiligiga duch kelishi kabilar kiradi.

- texnik va infratuzilma muammolari. Bu borada kanallar va suv omborlari eskirgan. Suv yetkazib berish tizimlarida yo‘qotishlar esa 30-40 % ga yetadi hamda zamonaviy monitoring va boshqaruv tizimlari mavjud emas.

- ekologik muammolar. Bu muammolar sifatida suv resurslarining ortiqcha ishlatilishi yerosti suv qatlamlarini kamaytirishi, sug‘orish va sanoat chiqindilarining yer va suv havzalarini ifloslantirishi va qurg‘oqchilik va iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavfning oshishi kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Suv resurslarini samarali boshqarish va salohiyatini oshirish uchun esa quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- texnologik yechimlarni shakllantirish. Ularga zamonaviy sug‘orish tizimlari (tomchilatib sug‘orish va sprinkler tizimlari), suvni qayta ishlash va filtratsiya tizimlarini joriy etish hamda IoT va raqamli monitoring tizimlari orqali suv oqimi va isrofi nazorat qilish kabilar xos bo‘ladi.

- investitsiya va infratuzilmani takomillashtirish. Bu bo‘yicha suv omborlari va nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish, sanoat va qishloq xo‘jaligida suvni tejash texnologiyalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hamda hududlararo suv taqsimoti va samaradorligini oshirish uchun davlat dasturlari ishlab chiqish lozim.

- siyosiy va institutsional yechimlar. Unga ko‘ra, suv resurslari bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish, mintaqaviy suv boshqaruvi bo‘yicha integratsiyalashgan strategiyalar ishlab chiqish va jamoatchilikni suvni tejash va ekologik ongga o‘rgatish belgilanadi.

Shularga asosan, mintaqada suv resurslari samaradorligini oshirish muammolari va uning choralari quyidagicha tavsiflanadi (1-jadval).

**1-jadval**

**Mintaqada suv resurslari samaradorligini oshirish muammolari, sabablari va choralari**

| № | Muammolar | Sabablar | Oldini olish choralari |
|---|---|---|---|
| 1 | Suv tanqisligi | Iqlim o‘zgarishi va noto‘g‘ri taqsimot | Suvni tejovchi texnologiyalar (tomchilab sug‘orish) |
| 2 | Irrigatsiya tizimlarining eskirishi | Infratuzilmaning yangilanmagani | Kanal va ariqlarni rekonstruksiya qilish |
| 3 | Suvdan samarasiz foydalanish | Nazorat tizimining zaifligi | Raqamli monitoring (GIS va smart hisoblagichlar) |
| 4 | Oqova suvlarni qayta ishlatmaslik | Texnologiya yetishmasligi | Suvni qayta ishlash tizimlarini joriy qilish |
| 5 | Qishloq xo‘jaligida yuqori suv sarfi | Eski agrotexnologiyalar | Ilg‘or agrotexnologiyalarni joriy qilish |
| 6 | Institutsional muammolar | Qonunchilik va boshqaruv kamchiliklari | Suv siyosati va boshqaruvni takomillashtirish |
| 7 | Iqtisodiy rag‘batlantirishning kamligi | Tariflarning samarasizligi | Differensial tariflarni joriy qilish |
| 8 | Ekologik muammolar | Suv ifloslanishi | Tozalash inshootlarini qurish |
| 9 | Aholi madaniyati pastligi | Axborot yetishmasligi | Targ‘ibot va ta’lim ishlari |
| 10 | Ma’lumotlar yetishmasligi | Statistika tizimi zaifligi | Yagona ma’lumot bazasini yaratish |

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, suv resurslari samaradorligini oshirish faqat texnik emas, ya’ni institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy choralarni ham talab qiladi. Bu boradagi kompleks yondashuv orqali suv tejaladi, iqtisodiy samaradorlik oshadi va ekologik barqarorlik ta’minlanadi.

Shuni ta’kidlash joizki, mintaqa iqtisodiyotida suv resurslari strategik ahamiyatga ega bo‘lib, qishloq xo‘jaligi, sanoat va aholi ehtiyojlarini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, so‘nggi yillarda suv resurslaridan samarali foydalanish bilan bog‘liq qator muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolarni chuqur tahlil qilish ularning sabablarini aniqlash va samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bu borada suv resurslari samaradorligini oshirish muammolari, ularning sabablari va bartaraf etish choralari o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun sabablarni aniqlash va ularga mos ravishda ilmiy asoslangan choralarni amalga oshirish zarur. Bu esa mintaqaning iqtisodiy barqarorligi va ekologik muvozanatini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningek, mintaqaviy iqtisodiyot barqaror rivojlanishida suv resurslari hal qiluvchi omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Unga asosan, qishloq xo‘jaligi, sanoat va kommunal xo‘jalik faoliyati bevosita suv ta’minotiga bog‘liq bo‘lib, suvdan samarali foydalanish darajasi hudud iqtisodiy salohiyatini belgilaydi. Shu sababli, suv resurslari salohiyatini oshirish quyidagi yo‘nalishlardagi ekologik va iqtisodiy muhim vazifa sifatida qaraladi:

birinchidan, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy sug‘orish texnologiyalarini, xususan tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish tizimlarini joriy etish zarur. Ushbu texnologiyalar suv sarfini 30-50 foizgacha qisqartirish bilan birga hosildorlikni oshirishga xizmat qiladi. Eskirgan irrigatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish va suv yo‘qotilishini kamaytirish orqali ham katta iqtisodiy samara olish mumkin.

ikkinchidan, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish zarur. Bu yo‘nalishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, suv hisobini yuritish va monitoring tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, “aqlli suv hisoblagichlari” va GIS texnologiyalaridan foydalanish suv taqsimotini yanada aniq va shaffof tashkil etishga imkon beradi.

uchinchidan, suvni qayta ishlash va takror foydalanish mexanizmlarini kengaytirish lozim. Sanoat korxonalarida yopiq suv aylanish tizimlarini joriy etish, oqava suvlarni tozalab qayta ishlatish orqali suv resurslariga bo‘lgan bosimni kamaytirish мумкин. Bu esa ekologik muvozanatni saqlaydi va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi.

to‘rtinchidan, institutsional va iqtisodiy mexanizmlarni kuchaytirish muhimdir. Suvdan foydalanish uchun differensial tariflar joriy etish, suvni tejagan subyektlarni rag‘batlantirish hamda suvni samarasiz ishlatganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish orqali suvdan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish mumkin.

beshinchidan, aholining suvdan foydalanish madaniyatini oshirish ham muhim omil hisoblanadi. Ta’lim va targ‘ibot ishlari orqali suvning iqtisodiy qiymatini tushuntirish, uni tejash bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish zarur.

Shunday ekan, suv resurslari salohiyatini oshirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Texnologik yangilanish, samarali boshqaruv, iqtisodiy rag‘batlar va ekologik mas’uliyat uyg‘unligi orqali mintaqa iqtisodiyotida barqaror o‘sishga erishish mumkin.

Xulosa shuki, mintaqa iqtisodiyoti barqaror rivojlanishi uchun suv resurslarining salohiyatini oshirish muhim vazifa bo‘lib hisoblanadi. Bu borada texnologik, infratuzilma va siyosiy yechimlarni uyg‘un amalga oshirish orqali suvdan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin. Qishloq xo‘jaligi, ichimlik suvi va sanoat sohalarida suv resurslarini tejash va monitoring qilish esa barqaror iqtisodiy o‘sish uchun zarur. Shunga asosan, suv resurslarini boshqarishda integratsiyalashgan yondashuv va “davlat-donor-investor” hamkorligi mintaqa iqtisodiyotining rivojlanishini ta’minlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-5005-son Qarori. Manba: https://lex.uz/uz/docs/5307918
2. Quvvatov J.Z. Respublikamizda suv resurslaridan foydalanishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari. // Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social science, Volume1, Issue1, 2021 February. - 284 b. ISSN 2181-1784.
3. Xushmatov N.S., Shoxo’jayeva Z.S. Suvdan foydalanish borasidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo’llari. // Suvdan foydalanish borasidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo’llari, 2023, 1(1). - 349 b. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/land-management/article/view/23885.
4. Xaitbayev J. Mintaqa iqtisodiyotida suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2025, 3(11). https://doi.org/10.5281/zenodo.17532084
5. Salohiddinov A.T. Ashirova O.A. Suv resurslarini havzaviy rejalashtirish va boshqarish. – T.: Info Capital Group, 2020. - 19 b.